

Muhammadsharif So'fizoda ijodiga bag'ishlangan konferensiya tashkil etildi

Muhammadsharif Egamberdi o'g'li So'fizoda o'zbek demokratik va ma'rifatparvarlik davri adabiyoti an'alarini davom ettirgan adiblar sirasiga kiradi. Uning, ayniqsa, "Dakanang", "Bedanang", "Ayting bu so'zimni", "O'pay", "G'ubor dardu olam" kabi hajviy va lirik g'azallari e'tiborga loyiq. U bilan o'zbek adabiyotida muhim o'rin tutgan ijodkor hisoblanadi.

O'zR FA O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti tomonidan shoir ijodiga bag'ishlangan "O'zbek mumtoz she'riyati an'alarining Muhammadsharif So'fizoda ijodida yangilanishi va uning milliy rivojlanish davridagi ahamiyati" mavzusida respublika ilmiy onlayn konferensiya tashkil etildi. Unda Institut xodimlari, taniqli adabiyotshunos olimlar, yosh tadqiqotchilar ishtirok etdi.



Konferentsiyada So'fizoda she'riyatida muallif biografiyasi va davr ijtimoiy voqeligining badiiy ifodasi, shoir g'azallari va mavzular ko'lami haqida ma'ruzalar tinglandi va shoir ijodining o'zbek adabiyotida o'rni alohida ekanligi ta'kidlandi.